

**“Ona lochin vidosi” romanida ona va hukmdor o‘g‘il
munosabatlarining badiiy talqini**

Madina Abdulla qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Adabiyotshunoslik o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 2-kuns magistranti Bazarboyeva

Email: bazarboyevamadina@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshodbegim va uning o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy-badiiy asosda tahlil qilinadi. Asar orqali onalik va siyosiy qarorlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritilib, adib tomonidan insoniylik va davlat manfaatlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ona, o‘g‘il, siyosiy ziddiyat, tarixiy roman, Ulug‘bek, Gavharshodbegim, Pirimqul Qodirov.

Kirish.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Pirimqul Qodirov tomonidan yaratilgan “Ona lochin vidosi” romani tarixiy roman janrida yozilgan bo‘lib, Temuriylar sulolasi davridagi murakkab siyosiy va shaxsiy muammolarni yoritadi. Asarda Gavharshodbegim va Ulug‘bek obrazlari orqali ona va o‘g‘il o‘rtasidagi rishtalar, siyosiy manfaatlar va insoniy tuyg‘ular to‘qnashushi badiiy vositalar orqali chuqur ochib beriladi.

Asosiy qism

Gavharshodbegim tarixiy manbalarda oqila va dono ayol sifatida tilga olinadi. Asarda u siyosiy faol ayol, o‘z zamonasining nufuzli arbobi sifatida ko‘rsatiladi. Onalik mehrini boshlab bergen bu obraz asta-sekin siyosiy raqobat maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun qarorlar qabul qiluvchi siyosiy shaxsga aylanadi.

“Gavharshodbegim endigi orzusi- qonli urushlar boshqa bo‘lmasa, Sohibqiron davrida soni ikki yuz mingdan oshib ketgan qo‘sish uch-to’rt barobar qisqartirilsa,, harbiy xarajatlardan ortib qolgan mablag’lar hisobiga maktab-u madrasalar , ko‘prik va rabotlar qurilsa, Shohruh Mirzo ha bunyodkorlik ishlariga moyil edi”¹⁹ “Ona lochin vidosi” asarida Mirzo Ulug‘bek siymosi ham har taraflama ochib berilgan.Ulug‘bekning ilm-fan rivojiga qo‘sishgan hissasi tarixda alohida o‘rin egallaydi. Romanda u adolatli, insonparvar hukmdor sifatida tasvirlanadi. Onasi Gavharshodbegim esa unga nisbatan ko‘proq siyosiy qat’iyat va amaliyot talab qiladi. Bu esa onaning siyosiy qarorlariga o‘g‘lining qarshi turishini

¹⁹ Pirimqul Qodirov “Adabiyot uchqunlari” T-2018 B-26





keltirib



chiqaradi:

“Olim bo‘lish men uchun shon-sharaf, ammo siz uni zaiflik deb bildingiz, onajon.”²⁰

Bundan tashqari asarda Mirzo Ulug’bekning onasi Gavharshodbegimga atab yozgan xatida uning bor his-tuyg’ulari juda chiroyli ifodalab berilgan:

“Hazrat onajon,sizni sog’inganmen. Diydoringizga tashna bo’lib, shu maktubni yo’llamoqdamen,degan so’zlarini o’qiganda ,beginning ko’zlariga birdan yosh keldi.

-Avvalo,mendan gunoh o’tgan bo’lsa,tazarru qilamen,kechiring! Sizni ranjitib bo’lsa ham,gumroh o’g’lim Abdulatifni o’z yonimga olib keldim.Men ota bo’lganligim uchun uning kafilini zimmanga olib, tarbiyat qilishga majburmen.Abdulatif chetroq joyda mushkilotlar bilan olishib chiniqishi uchun uni Balxda qoldirmoqchimen. Endi Samarqandga qaytishdan oldin siz bilan ko’rishish uchun ahairotga bormoqchi bo’ldim. Ammo Mirzo Alouddavla Hirot harbiy holatda ekanini aytib, borishimga moyillik ko’rsatmadı.

Men suyangan eng ulkan tog’ sohibqiron bobomdan so’ng xoqoni Sayyid otam bo’lganini endi astoydil his qilmoqdamam.Meni ellik yildan balo-qazodan asrab yurgan otam endi yo’q.Men suygan yana bir tog’-siz oanm hazratlari ekaningiznibirga safar qilganimizda aytgan edim.Endigi umidim shulki, sizni bir vaqtlardagidekAmudaryo bo’yida kutib olsam...”²¹

Biroq vaqt o’tishi bilan ziddiyat cho‘qqisi – siyosat va tuyg‘ular to‘qnashuvi sodir bo’la boshladi.Ulug‘bekning o’g’li Abdulatif tomonidan taxtdan ag‘darilishi va keyinchalik qatl etilishi — asarning fojiaviy cho‘qqisidir. Gavharshodbegim bu jarayonda sukut saqlaydi, hatto bilvosita bu harakatni qo’llab-quvvatlaydi. Bu esa onalik va siyosiy vazifaning qanchalik qarama-qarshi ekanini ochib beradi. “Ona yuragi yig‘ladi, lekin hukmdor yuragi sukut saqlaydi.” Xulosa. “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshodbegim va Ulug‘bek o’rtasidagi munosabatlar tarixiy voqealar asosida badiiy ifodalangan. Muallif orqali o’quvchi nafaqat ona va o‘g’il o’rtasidagi munosabatni, balki siyosiy ehtiyojlar va insoniy qadriyatlarning to‘qnashuvini chuqur tahlil etadi. Asar orqali adib tarixiy haqiqatni insoniylik prizmasi orqali ko’rsatib beradi. Bu esa romanni tarixiy voqealardan tashqari, universal falsafiy mazmun bilan boyitadi.

²⁰ Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” “Adabiyot uchunlari T-2028 B-189

²¹ Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” “Adabiyot uchqunlari” T-2018-B-88

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – “Adabiyot uchqunlari” T-2018
2. Nuritdinov A. Temuriylar davrida siyosiy ayollar: Gavharshodbegim misolida // O‘zRFA “Sharq” ilmiy jurnali, 2020, №2.
3. Jo‘rayev A. Ulug‘bek merosi va ilm-fan taraqqiyoti – Toshkent: Fan, 2015.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/shohruh-mirzoning-suyukli-rafiqasi-gavharshodbegimning-temuriylar-siyosiy-hayotidagi-o-rni>
5. <https://ziyouz.com/kutubxona>

